



## O'ZBEKISTON JAHON MAMLAKATLARI BILAN HAMKORLIGI YANGI BOSQISHDA

Nuratdinov Muxametdin Ibraxim uli

Berdaq nomidagi QDU Yurdika fakulteti 1-kurs talabasi

+998-88-354-300m7. nuratdinovmuxametdin@gmail.com

**Abstract:** Mazkur maqolada O'zbekistan Respublikasining shet el mamlakatlari fuqorolariga ham yaratib berayotgan katta imkoniyatlari va qo'shni mamlakatlari bilan yaqin munosabatlari shu jumladan O'zbek va qozoq xalqlarining o'tmishi, tarixi va buguni mustahkam aloqalari, shu jumladan ikki mamlakat o'rtasidagi ishtimoiy-siyosiy va iqtisodiy yo'nalishdagi birga olib borilgan say harakatlar tilga olinib o'tildi.

Mazkur maqola keng jamoatchilikning o'qishiga tavsiya etiladi.

**Key Words:** qabul qilingan prezident farmonlari, qonun oldida hamma tengligi principi, qadriyatlar, mustahkam qo'shnichilik

Jamiyatda bag'rikenglik va insonparvarlik madaniyatini yuksaltirish, millatlararo va konfessiyalararo hamjihatlikni, fuqarolar totuvligini ta'minlash, shuningdek, xorijiy mamlakatlar bilan do'stona, teng huquqli va o'zaro manfaatli munosabatlarni mustahkamlash O'zbekiston davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

Bular Konstitutsiyamizda mustahkamlangan fuqarolarning irqi, millati, tili, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar, qonun oldida tengligi tamoyillari hamda turli millat va elatlar vakillarining tili, urf-odatlari va an'analarini hurmat qilish, ularni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga asoslanadi.

Jamiyatda do'stlik va ahillik, tinchlik va barqarorlik muhitini mustahkamlash ijtimoiy, siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, gumanitar va ma'naviy sohalarda islohotlarni izchil amalga oshirish, xalqaro maydonda mamlakatimiz nufuzini yanada oshirishning muhim omili va zarur sharti hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Millatlararo munosabatlар va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni jamiyatda barqarorlik, tinchlik va totuvlikni ta'minlash, fuqarolar ongida katta, ko'p millatli yagona oilaga mansublik tuyg'usini mustahkamlash, milliy madaniy markazlar va do'stlik jamiyatlari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash va yanada rivojlantirish, xorijiy mamlakatlar bilan madaniy-ma'rifiy aloqalarni kengaytirishga qaratilgan.

Xususan, Respublika baynalmilal madaniyat markazi va O'zbekiston xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik va madaniy-ma'rifiy aloqalar jamiyatlari kengashi negizida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlар va



xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasining tashkil etilishi muhim ahamiyat kasb etadi.<sup>11</sup>

O'zbek va qozoq xalqlarining o'tmishi, tarixi va buguni mustahkam aloqalar bilan juda bog'liq. Azaldan yaqin qo'shni sifatida tinch-totuv, ahil-inoq yashab kelayotgan ikki xalqning tarixi, tili, urf-odat, an'ana va qadriyatları ham o'xshash. Ikki davlat o'rta sidagi diplomatik munosabatlar 1992-yil 23-noyabr kuni o'rnatilgan. 1998 yilda Abadiy do'stlik to'g'risidagi shartnoma imzolandi.<sup>12</sup> 2013-yil iyun oyida Strategik sheriklik to'g'risidagi bitim imzolanishi bilan davlatlar o'rta sidagi munosabatlar darajasi yanada oshdi.

Keyingi yillarda ikki davlat o'rta sidada do'stona qo'shnichilik va strategik hamkorlik tili, dini, urf-odati, adabiyoti, madaniyatları mushtarakligiga tayangan holda izchil ravnaq topmoqda. Buning yaqqol namunasi sifatida 2023-yil 30-iyun sanasida O'RQ-849-sonli qaroriga ko'ra ikki mamlakatning chegarasini demarkatsiya qilish to'g'risidagi shartnoma ratifikatsiya qilish haqida qaror ikki mamlakatning do'stona munosabatlarini yanada mustahkamladi. O'zaro yaqin aloqalar, ochiq muloqot bugungi global dunyoda yangi ko'rinishlarda namoyon bo'lyapti. Ikki davlatni ko'plab o'zaro manfaatlar bog'lab turadi.

Xalqaro siyosiy masalalarda ham ular bir-birini qo'llab-quvvatlab kelmoqda. Masalan : Qozog'iston Respublikasida aprel oyi boshida boshlangan suv toshqini qozoq xalqi uchun yaqin 30 yillik ichida bunday fojiali voqeа yuz bermagan edi dep Qozog'iston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi raisi. Shunday og'ir damlarda mamlakatimiz rahbarining tashabbusi va xalqlarimizning uzoq tarixga, boy o'tmishga, ega xalqimizning yaqin qo'shni mamlakatimizda sodir bo'layotgan voqeaga befarq qaramadi. Oq ko'ngil va saxiy xalqimiz shunday og'ir damda o'zining yuksak fazilatlarini, do'stligini, o'z ko'magini berishdan hech charchamadi. Bugun o'zbek xalqining o'zining do'stlik va hamjihatlik munosabatlari bilan o'rnak bola oladigan fazilatlarini butun jahon tan olmoqda. Ishtimoiy tarmoqlarda ham qanchadan qancha xalqimiz fuqorolarning yormadi aks etgan vudeolarini ko'rmagan insonlar bo'lmasa kerak menimcha.

Mamlakatlarimiz ikki tomonlama va Birlashgan Millatlar Tashkiloti, YeXHT, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi, Islom hamkorlik tashkiloti, Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi kabi qator nufuzli tuzilmalar doirasida samarali hamkorlik qilib kelmoqda.

O'zbekiston va Qozog'iston o'rta sidagi parlamentlararo muloqot ham ancha faollashdi. Tomonlar qonun ijodkorligi, jumladan, xalqaro parlament tuzilmalari doirasidagi tajribalarni o'rganish maqsadida muntazam ravishda delegatsiyalarning

<sup>11</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5046-sen Farmoni Toshkent sh., 2017-yil 19-may, <https://lex.uz/acts/-3210345>

<sup>12</sup> 31.10.1998. Abadiy do'stlik to'g'risida O'RQ <https://lex.uz/docs/-2553833>



o'zaro tashriflarini amalga oshirilib kelinmoqda va bular ham ommaviy axborot vositalari xodimlari tomonidan xabar berilmoqdalar.

Bugungi kunda O'zbekistonda 800 mingdan ortiq qozoq millatiga mansub yurtdoshlarimiz istiqomat qilib kelmoqda. Qozog'istonagi o'zbeklar jamoasi esa 600 mingdan ortiq kishini tashkil etadi. Ular ikki davlat ravnaqi va gullab-yashnashiga, xalqlarimiz o'rtasidagi do'stlik va qardoshlik rishtalarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda<sup>13</sup>.

'Ikki davlat Prezidentlarining siyosiy irodasi va uzoqni ko'zlab amalga oshirayotgan oqilona siyosati natijasida mamlakatlarimiz o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlik munosabatlari yangi bosqichga ko'tarildi. Barcha sohalarda katta muvaffaqiyatlarga erishilib, keng ko'lamli hamkorlik jadal sur'at bilan rivojlanib bormoqda. Ayniqsa, so'nggi yillarda ushbu ikki davlatlar o'rtasidagi ikki tomonlama munosabatlar faollashib, yangi bosqichga ko'tarilib, tarixiy natijalarga erishilib kelinmoqda. Xususan, siyosiy, madaniy, va iqtisodiy muloqotlar faollashib, savdo-sanoati va iqtisodiyot va investitsiyaviy aloqalar ham kengayib kelmoqda.

### **O'zbekiston va Qozog'iston: ittifoqchilik munosabatlarida yangi davr**

O'zbekiston Markaziy Osiyo mamlakatlari, jumladan, Qozog'iston bilan o'zaro ishonch va yaxshi qo'shnichilikka asoslangan munosabatlarni rivojlantirish yo'lidan bormoqda. O'zbek va qozoq xalqi nafaqat yaqin qo'shni, balki qardosh sifatida ko'p qirrali hamkorlikning barcha masalalari bo'yicha azaldan bir-birlarini tushunib, qo'llab-quvvatlab kelgan. Mamlakatlar yaxshi qo'shni va o'zaro manfaatli hamkor sifatida taraqqiyot yo'lidan yelkama-yelka bormoqda. Siyosiy, savdo-iqtisodiy, energetika, qishloq xo'jaligi, suv va boshqa sohalardagi munosabatlarni tubdan kengaytirish masalalari bugungi kunlarning asosiy mavzusi bo'ldi.

Keyingi yillarda hamkorlikning barcha yo'nalishlarida sezilarli muvaffaqiyatlarga erishilgani so'zimizga yaqqol misoldir. Ikki mamlakat hukumatlari, vazirlik va idoralari, hududlari o'rtasidagi muloqotlar muntazamlik kasb etgan. Ko'p tomonlama tuzilmalar doirasidagi o'zaro manfaatli hamkorlikni bundan buyon ham davom ettirishga intilish qat'iy ekani mamlakatimiz prezidenti Shavkat M.Mirziyoev va Qozog'iston Prezidenti Qosim-Jomart Toqayevning 2022-yil 21-22-dekabr kunlari mamlakatimizga qilgan tashrifida ta'kidlandi

Bunday tadbirlar do'stlik rishtalarimizni mustahkamlashga xizmat qilib, o'zbek xalqida qardosh qozoq xalqining tarixiga qiziqish g'oyat balandligidan dalolat berishi ta'kidlandi. Umuman, ushbu tashrif oliy darajadagi muzokaralar kun tartibining kengligi va erishilgan kelishuvlarning ahamiyati bo'yicha ikki tomonlama munosabatlarda yangi sahifa ochgan tarixiy voqeа bo'ldi.

Shavkat Mirziyoyevga bunyodkorona siyosati va Qozog'iston - O'zbekiston munosabatlarini mustahkamlashga qo'shayotgan ulkan hissasi uchun minnatdorlik bildirdi. Davlat rahbari tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan konstitutsiyaviy

<sup>13</sup> O'zbekiston va Qozog'iston hamkorligi yangi bosqichga chiqmoqda | O'zLiDeP  
<https://uzlidep.uz/uz/news-of-party/15707>



islohotlarni qo'llab-quvvatlashini ta'kidlab, ushbu islohot O'zbekiston taraqqiyoti uchun mustahkam poydevor bo'lishiga ishonch bildirdi. Ikki tomonlama hamkorlikning o'zagi iqtisodiyot ekani, ikki mamlakatning ulkan salohiyatidan foydalanishga e'tiborni kuchaytirish lozimligi ta'kidlandi.

Xususan, oxirgi besh yilda o'zaro savdo hajmi ikki barobardan ziyodga ortdi, joriy yil yakunida esa besh milliard dollarga yaqinlashadi. Talab yuqori bo'lgan mahsulotlarni o'zaro yetkazib berishni ko'paytirish orqali yaqin yillarda tovar ayirboshlashni karrasiga oshirish maqsadida Bosh vazirlar o'rinnbosarlari boshchiligidida ishchi guruh tuzish va qo'shma tashqi savdo kompaniyasini tashkil etishga kelishib olindi.<sup>14</sup>

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joyizki, O'zbekiston Markaziy Osiyo mamlakatlari, jumladan, Qozog'iston bilan o'zaro ishonch va yaxshi qo'shnichilikka asoslangan munosabatlarni rivojlantirish yo'lida o'ziga xos say harakatlarni amalga oshirib bormoqda. Jumladan, yoqarida aytib o'tkan ishlar, bugungi kundagi islohatlar barcha-barchasi so'zimizga misoldir. O'zbekiston va Qozog'iston: ittifoqchilik munosabatlarida yangi davr, yangi boshqish. Yuqoridagilardan kelip chiqib shuni aytish mumkinki, O'zbek va qozoq xalqlari azal-azaldan qardosh, tug'ishgan,xalq bo'lib yashagan. Bugungingi kundagi olib borayotgan islohatlar ham ikki mamlakatning ravnaqi va do'stligini rivojlantirish va uni yangidan-yangi bosqishlarga olib chiqishga ko'maklashadi.

## REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi <http://lex.uz//docs/-6445145>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5046-son Farmoni Toshkent sh., 2017-yil 19-may <https://lex.uz/acts/-3210345>
3. Abadiy do'stlik to'g'risida O'RQ 31.10.1998 <https://lex.uz/docs/-2553833>
4. O'zbekiston va Qozog'iston hamkorligi yangi bosqichga chiqmoqda O'zLiDeP Odinaxon OTAXONOV A <https://uzlidep.uz/uz/news-of-party/15707>
5. O'zbekiston va Qozog'iston: ittifoqchilik munosabatlarida yangi davr <https://www.trt.net.tr/uzbek/turk-dunyosi/2022/12/23/01234567890-330-1922800>

<sup>14</sup> O'zbekiston va Qozog'iston: ittifoqchilik munosabatlarida yangi davr <https://www.trt.net.tr/uzbek/turk-dunyosi/2022/12/23/01234567890-330-1922800>